

JURNALISTIK SURISHTIRUV O‘TKAZISHDA JURNALIST VA AXBOROT MANBASI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MUAMMOLARI

Hamida Mirsultanova,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Malika Jahonova,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jurnalistik tergovning o'ziga xos xususiyatlari, jurnalistning xavfsizligini ta'minlash muammolari va ma'lumot to'plash jarayonida ma'lumot manbai tizimli tahlil qilindi. Jurnalist va manbada yuzaga keladigan xatarlarning asosiy turlari jismoniy, huquqiy, psixologik va raqamli xavfsizlik masalalari amaliyot bilan bog'liq holda o'rganiladi va mavjud global tahdidlar tasniflanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 19-moddasiga asoslangan YUNESKO, jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi (Committee to Protect Journalists, CPJ), chegarasiz muxbirlar (chegaralarsiz muxbirlar, RSF) kabi xalqaro tashkilotlarning amaliy tavsiyalari va xalqaro standartlarga asoslangan himoya mexanizmlari o'rganildi. Shu bilan birga, O'zbekiston milliy qonunchiligida jurnalistika va axborot resurslari xavfsizligini ta'minlashning mavjud huquqiy asoslari hamda ularning xalqaro standartlarga muvofiqligi amaliy misollar asosida tahlil qilindi. Yakuniy qism jurnalistlar va axborot manbalarini har tomonlama himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha xalqaro va milliy tajribani birlashtirgan kompleks echimlarni taklif etadi.

Kalit soʻzlar: axborot manbasi, jurnalist xavfsizligi, xalqaro indekslar, blogger, tahdid.

1. Kirish va gipoteza

Jurnalistik surishtiruv jurnalistikaning eng mas’uliyatli va ijtimoiy ahamiyatga ega yo’nalishlaridan biridir. Bu janr ommaviy axborot vositalarining “to’rtinchi hokimiyat” sifatidagi haqiqiy rolini namoyon etadi. Surishtiruv orqali jamiyatdagi korrupsiya, huquqbuzarliklar, boshqaruvdagi zaifliklar, ijtimoiy tengsizlik kabi illatlar fosh etiladi. Oddiy axborot tarqatishdan farqli ravishda, jurnalistik surishtiruv muammolarning ildiziga yetib boradi, ularni hujjatlar, faktlar, guvohlar orqali asoslaydi va jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi. Surishtiruv jurnalistikasi demokratik mamlakatlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jurnalistik surishtiruv o‘tkazish adolat va oshkoralikni ta’minlashda, haqiqatni yuzaga chiqarishda muhim ijtimoiy mexanizm sanaladi. Bunday mas’uliyatli, mashaqqatli surishtiruv jarayonida jurnalistlar o‘ziga va oila a’zolariga nisbatan qo‘rqitishlar, tajovuzlar, noqonuniy kuzatuvlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali sha’ni va obro’siga nisbatan tuhmatlar uydirilishi, hatto jismoniy zo‘ravonlik, hujumlarga uchrashi mumkin. Ayniqsa, korrupsiya, davlat byudjetini talon-taroj qilgan amaldorlar faoliyati, noqonuniy biznes amaliyotlarini yoritishda jurnalistlar manfaatdor tomonlarning qarshi xatti-

DOI:

<https://doi.org/10.62499/>

ijmcc.vi.204

Iqtibos:

Mirsultanova, Hamida;
Jahonova, Malika. 2025.
JURNALISTIK
SURISHTIRUV
O‘TKAZISHDA JURNALIST
VA AXBOROT MANBASI
XAVFSIZLIGINI
TA’MINLASH
MUAMMOLARI Markaziy
Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro
ilmiy jurnali. 10: 84-93

harakatlariga duch kelishadi.

“Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro tashkilotining rasmiy saytida keltirilishicha (World, 2025), 2020–2025 yillar oraligʻida jami 327 nafar jurnalist va oʻldirilgan. Biz mazkur tahlilni Markaziy Osiyo misolida ham oʻrganib chiqishga qaror qildik: Qozogʻiston, Turkmaniston va Oʻzbekistondan 1 nafar jurnalist oʻldirilgani qayd etilgan. Tojikiston va Qirgʻiziston davlatlari esa roʻyxatda mavjud emas. Bizning eʼtiborimizni tortgan jihat xalqaro tashkilot professional jurnalist va bloggerning faoliyatini birdek tahlil qilgani boʻldi. Sababi, Oʻzbekistonda oʻldirilgan deb keltirilgan Mustafa Tursinbayevning blogger ekani keltirib oʻtiladi. U Qoraqalpogʻistonda mashhur boʻlgan 154 ming obunachisi boʻlgan mustaqil “Nukus Online” videokanali muallifi boʻlgan (Nukus, 2025). Internet nashrlaridan birida esa Toshkent viloyatidagi Tovoqsoy qamoqxonasi – 7-son jazoni ijro etish koloniyasida jazo muddatini oʻtayotgan mahkum bir qavatli binoning devorlarini buzayotgan vaqtida ustiga devor qulagan va besh kun oʻtib shifoxonada vafot etgan, deb keltiriladi (Tovoqsoy, 2025). Ammo mahkumning onasi oʻgʻlini yo zaharlashgan, i yo qiynab oʻldirishgani haqida gumonga boradi va badanida qiynoq va elektroshoker izlariga oʻxshash chiziqlar bor ekanini aytib oʻtadi. Garchi oʻlim jurnalistlar bilan bogʻliq boʻlmasa ham har bir soha xodimini sergak torttirishi mumkin.

Yuqoridagi maʼlumotlardan kelib chiqadiki, jurnalistika dunyodagi eng xavfli kasblar qatorida turganligi bejiz emas. Halok boʻlgan jurnalistlarning aksariyati jurnalistik surishtiruvlar olib borgan yoki urush hududlarida faoliyat yuritgan jurnalistlar sanaladi. Ular muntazam taʼqiblarga uchraydi, zoʻravonlik qurboniga aylanadi yoki bosim ostida faoliyatidan voz kechishga majbur boʻladi. Shu bois jurnalistning huquqiy, axboriy va jismoniy xavfsizligini taʼminlash jurnalistik erkinlikning kafolati hisoblanadi. Agar jurnalist xavfsizligi taʼminlanmasa, u surishtiruv olib borishga jurʼat etmaydi va natijada jamiyatdagi bir qator muammolar oʻz holicha qolaveradi. Shu sababli ushbu maqola jurnalistika ilmida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Methods and materials

Mazkur mavzuni oʻrganish maqsadida xalqaro huquq va milliy qonunchlikka tayanildi. Jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida”gi Xalqaro Pakt, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Axborot erkinligi kafolatlari va himoyasi toʻgʻrisida”gi Qonuni va boshqa meʼyoriy hujjatlar shular jumlasidan. Ushbu qonun hujjatlari jurnalistning erkin axborot olish, tarqatish, shaxsiy hayot daxlsizligi, xavfsizlik, kasbiy faoliyatga aralashmaslik, axborot

manbaini himoya qilish kabi huquqlarini kafolatlaydi.

Shu o'rinda, jurnalist xavfsizligi bilan bir qatorda axborot manbasini himoya qilish ham anchayin dolzarb jihatlardan biridir. Jurnalstning o'ziga axborot taqdim etgan shaxs yoki tashkilot haqidagi ma'lumotni oshkor etmaslik axborot manbasi xavfsizligi hisoblanib, unga kasbiy majburiyat sifatida qaraladi. Agar jurnalist axborot manbasining xavfsizligini ta'minlamasa, ma'lumot taqdim etgan shaxsning hayoti xavf ostida qolishi mumkin. Axborot manbalarining xavfsizligini kafolatlash, senzura va repressiyadan xoli demokratik jamiyat uchun muhim shartlardan biri sanaladi.

3. Natijalar va munozara

Jurnalistik surishtiruv o'tkazishda jurnalist va axborot manbasi xavfsizligini ta'minlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli muammolar va xavflar bilan bog'liq. Ularni ikki yo'nalishda – jurnalistning xavfsizligi va axborot manbasi xavfsizligi nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin.

Filologiya fanlari nomzodi, professor N. Toshpo'latovanning ta'kidlashicha, surishtiruv olib borayotgan jurnalistlar ishonchli va zarur axborotni olish jarayonida bir qator to'siqlarga duch keladilar. Jumladan:

- a) axborotga erkin kirishdagi cheklovlar;
- b) zamonaviy usul va texnologiyalarni amaliyotda qo'llashda qiynalish;
- c) tadqiqot mazmunini to'liq anglay olmaslik;
- d) tashqi yoki ichki bosim ostida qolish;
- e) vaqt cheklovlari;
- f) huquqiy bilim va savodxonlikning yetarli darajada emasligi (Toshpo'latova, 2018)

Fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqi "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" (Inson, 1948), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Pakt (Fuqarolik, 1966), "Adabiy va badiiy asarlar to'g'risida"gi Bern konvensiyasi (Adabiy, 1886) kabi xalqaro huquqiy me'yorlarda aks etgan (Do'stmuhammad, 2019) Deklaratsiyaning 19-moddasida davlat chegaralaridan qat'iy nazar axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi keltirilgan. Xalqaro Paktning xuddi shu moddasida ham ushbu holat mustahkamlangan.

Garchi jurnalist surishtiruv o'tkazish huquqiga ega bo'lsa ham, axborotni manbadan talab qilolmaydi. Shuningdek, yozuvchi kabi to'qima voqea va obrazlardan emas, faktga asoslangan xabarlarini tarqatishi zarur. Bu o'rinda u oltin o'rtalikni topishi kerak. Dedektiv qonun nomi bilan manbadan axborot berishni talab qilsa, jurnalist uning xohishiga ko'ra axborot berishiga erishishi zarur (Mirsultanova, 2023). Yozuvchi asarni kirish, kulminatsiya va xulosa qismlarga bo'lgani kabi jurnalist manbalarni o'rganib,

tekshirib, ijodkorona tarzda auditoriyaga taqdim etadi. Aks holda u yo qonunni yo etika qoidalarini buzadi. Misol uchun, “o‘zganing mulki hisoblangan uyga bostirib kirib bir ayolni fohishalikda ayblash va uni kiyimsiz holatda so‘roqqa tutish jurnalist etikasiga ziddir”.

Olimlar Y.Mamatova va S.Sulaymonova axborot manbalarini ikkiga: ochiq va yopiq axborot manbalariga ajratadilar (Mamatova, 2015).

Internet saytlariga aholining tezkor axborot yetkazilishi va erkin muloqot imkoniyatlari mavjud bo‘lgani sababli, fuqarolardan turli murojaatlar kelib tushadi. Jurnalistlar esa bunday murojaatlar asosida surishtiruv ishlarini olib boradi. Masalan, “Kun.uz” nashriga “Xiva Stroy” MCHJ rahbari murojaat qilib, ularning tuman hududidagi “Ibrohim ota” mahallasida ikki qavatli uylar qurganini, ammo ularga va’da qilingan to‘lov hanuzgacha amalga oshirilmaganini bildirgan.

Mazkur holat yuzasidan ma’lumot olish maqsadida tahririyat vakillari Toshkent shahrining Olmazor tuman hokimligiga murojaat qilgan. Biroq hokim o‘rinbosari A. Vahabov jurnalistlarga nisbatan qo‘pol munosabat bildirgan, videotasvirga olishni taqiqlab, operatorga jismoniy aralashgan va uning texnik vositasini shikastlagan. Shuningdek, u jurnalistlarni prokuraturaga topshirish bilan ham tahdid qilgan (Ushlang, 2019).

“Daryo.uz” internet nashrida huquqshunos Murodjon Najmiddinovning “‘Tergov siri’. Jurnalistlar tergov ma’lumotlarini kimdan va qanday olishi mumkin?” nomli maqolasida quyidagich keltiriladi (Najmiddinov, 2023): ko‘p hollarda tergov tafsilotlarini oshkor qilmaslikka asos sifatida “tergov siri” tushunchasiga tayaniladi. Biroq bu atama hech bir qonun hujjatida aniq belgilab qo‘yilmagan. Ya’ni, tergov siri deganda aynan nima tushunilishi, qanday axborot tergov siri deb e’tirof etilishi mumkinligi yoki bunday ma’lumotlarni qanday asosda sir deb topish mumkinligi qonunlarda ko‘rsatilmagan. Bundan tashqari, tergov materiallarida qayd etilgan barcha axborot avtomatik tarzda tergov siri sanaladimi yoki yo‘qmi, bu borada ham aniqlik mavjud emas. Jinoyat-protsessual kodeksi va Jinoyat kodeksida tergov yoki surishtiruv doirasidagi ma’lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilish mumkin emasligi belgilangan. Ushbu doiradagi ma’lumotlarga odatda so‘roq, yuzlashtirish, tintuv, tergov eksperimenti bayonnomalari, ekspertiza xulosalari va boshqa tergov hujjatlarida qayd etilgan axborotlar kiradi. Tergovni olib borayotgan shaxs jinoyat ishidagi ayrim yoki barcha ma’lumotlarni oshkor etilmaydigan deb topishga haqlidir. U, shuningdek, prosess ishtirokchilaridan bu ma’lumotlarni tarqatmaslik to‘g‘risida yozma tilxat olishga ham haqli. Bunday tilxatlarda, odatda, ma’lumotlarni ruxsatsiz oshkor etish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkinligi

JURNALISTLARNING XAVFSIZLIGI

haqida ogohlantirish bo'ladir. Shu asosda quyidagi xulosaga kelish mumkin: "tergov siri" bu – tergov materiallarida hujjatlashtirilgan, tergovchi tomonidan oshkor qilinmasligi kerak deb topilgan va oshkor etish uchun jinoiy javobgarlik borligi haqida ogohlantirish berilgan ma'lumotlardir. Agar proses ishtirokchilari bu haqida ogohlantirilmagan bo'lsa yoki ma'lumotlar tergov materiallari sifatida rasmiylashtirilmagan bo'lsa, u holda ularni tarqatishga ruxsat talab qilinmaydi. Bundan tashqari, tergovgacha bo'lgan tekshiruv jarayonidagi ma'lumotlar tergov siri deb hisoblanmaydi. Jinoyat-protsessual kodeks faqat guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolislariga surishtiruv yoki tergov ma'lumotlarini tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilmaslik majburiyatini yuklaydi. Hatto himoyachi ham o'z vazifasini bajarish davomida bilgan ma'lumotlarni tarqatishga haqli emas. Jurnalistlar faqat tergovchini roziligi bilan tergov ma'lumotlarini proses ishtirokchilaridan olishlari mumkin. Agar ma'lumot tergov materialiga kiritilmagan bo'lsa yoki ishtirokchi ogohlantirilmagan bo'lsa, u holda bu axborotlarni olish uchun rozilik talab etilmaydi.

"Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, o'z nomini oshkor etmaslik sharti bilan jurnalistlarga ma'lumot bergan shaxslar haqida ma'lumot oshkor etilishi mumkin emas. Ammo Jinoyat-protsessual kodeksda ko'rsatilganidek, agar surishtiruvchi, tergovchi yoki sud muhim holatlarni aniqlash uchun jurnalistni guvoh sifatida chaqirsa, u kasb siriga tayanib, ko'rsatuv berishdan bosh tortolmaydi. Masalan, AQSHda 1950–2019 yillar oralig'ida 48 nafar jurnalist manbani ochiq qilmagan uchun jazolangan. Oregon universiteti jurnalisti Annet Byukenen talabalarning giyohvandlik iste'moli haqidagi maqolasi sababli manbani oshkor qilmaganlik uchun jazoga tortilgan. Avstraliyada esa tergov haqidagi ma'lumotlarni politsiyadan olgan jurnalist 5 yillik qamoq jazosi bilan tahdid qilingan. Buyuk Britaniyada jurnalistika siri qonun bilan himoyalanaadi, biroq zarurat yuzaga kelsa, politsiya manbani aniqlash uchun sudga murojaat qiladi.

Jinoyat ishlari sudlarda ochiq yoki yopiq tarzda ko'rib chiqiladi. Sud majlisi ochiq bo'lsa, jurnalistlar hech qanday to'siqlarsiz ishtirok etishlari mumkin. Ammo davlat siri, jinsiy jinoyatlar, voyaga yetmaganlar, shaxsiy hayotga oid ma'lumotlar ishi bo'yicha yopiq tartibda ko'riladi. Ayrim tergov harakatlari, masalan, ekskumatsiya, qamoqqa olish, uy qamog'i, lavozimdan chetlatish masalalari ham faqat yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi. OAV va tergov organlari o'z ishini bajarishi kerak, lekin bu faoliyat qonuniy doirada, tomonlarning huquqlarini hurmat qilgan holda olib borilishi lozim.

Ukrainiyalik tadqiqotchi Anastasiya Grinko (2012) ham o'z tadqiqotida: "jurnalist internet, xususan, ijtimoiy tarmoq va bloglardan o'z mustaqil tadqiqotlarini onlayn targ'ib qilish bilan

birga jurnalist surishtiruvini o'tkazishda ham samarali foydalanishi mumkin" degan fikrni ilgari suradi.

Filologiya fanlari doktori Boris Lozovskiyning yoshdashuviga ko'ra, axborot manbalari bilan ishlashda jurnalist uchta asosiy muammoga duch keladi (Лозовский, 2007):

- axborot olishning eng ishonchli usulini tanlash;
- olingan ma'lumotlarni tekshirish;
- "texnik xavfsizlik"ni ta'minlash.

Ko'pchilik hollarda jurnalistga muhim ma'lumot bergan shaxs uning shaxsiyati sir saqlanishini so'raydi. Bunday vaziyatlarda jurnalistlar anonim yoki yopiq manbalar bilan ishlash tartibi, bunga doir huquqiy me'yorlar va mas'uliyatni chuqur o'rganishi lozim. Shuningdek, olingan ma'lumotlarning haqqoniyligini qayta tekshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar jurnalist biror holatdan shubhalansa va bu haqda xabar berish jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin deb hisoblasa, u albatta, jurnalistik surishtiruv o'tkazishga urinadi. Biroq bu jarayon ko'pincha yopiq manbalar bilan ishlashni talab qiladi, bu esa jurnalist hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababli, qonunchilik surishtiruv olib borish huquqini bergan bo'lsa-da, amalda jurnalistlar ba'zida axborotni yashirinchalik yig'ishga majbur bo'ladi va bu orqali ba'zan qonun talablarini chetlab o'tish hollari ham kuzatiladi.

"The Philadelphia Inquirer" nashrining sobiq muharriri Jin Roberts ta'kidlaganidek, jurnalistik tekshiruvning asosiy maqsadi kimnidir fosh etish yoki qonunbuzarlikni aniqlash emas, balki o'quvchini mavzu bo'yicha bildirilayotgan turli fikrlarga e'tibor qaratishga undashdir (Kusherbaev, 2017). Shu bois, jurnalist axborot manbasidan ma'lumot talab qilishdan ko'ra, uning mavzuga aloqadorligini aniqlash va tahlil qilishni o'zining asosiy vazifasi deb bilishi kerak.

Avstraliyalik tadqiqotchi J.Posetti jurnalist xavfsizligiga tahdid soluvchi muammolarni ma'lum kategoriyalarga bo'lib tasniflaydi (Posetti, 2017):

- Jismoniy xavf. Ta'qib qilish, do'pposlash, hujumga uchrash, bedarak yo'q qilish, kuch ishlatish kabi xatti-harakatlar kiradi. Tergov olib borilayotgan hududlarda o'ta xavfli sharoitlarga tushib qolish (masalan, korrupsiyaga oid yoki jinoyatchilik bilan bog'liq surishtiruvlarda).

- Huquqiy bosimlar. Soxta ayblovlar, tuhmat va kamsitish bilan sudga tortish. Axborot tarqatishda mavjud qonunlar noto'g'ri talqin qilinishi yoki jurnalistga qarshi ishlatilishi. Sud orqali charchatish va moliyaviy qiyinchilikka olib keluvchi jarayonlar. Bu holat jurnalistni professional faoliyatidan chalg'itish va xatti-harakatlarini chegaralashga xizmat qiladi.

- Psixologik bosim. Tahdidli xatlar, ogohlantirishlar, oila

JURNALISTLAR XAVFSIZLIGI

a'zolari va yaqinlariga bosim o'tkazish. Jurnalistni doimiy ruhiy tushkunlik va xavotir solish.

- Texnologik xavf. Telefon va elektron qurilmalar kuzatuvi. Kiberhujumlar, hisoblar buzilishi. Geolokatsiya orqali joylashuv aniqlanishi.

Tadqiqotlar natijasida jurnalistlarning ta'qibga uchrashi uchun ular tanlagan mavzu ahamiyatga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Sababi, atrof-muhit bo'yicha tadqiqot qiluvchi eko-jurnalistlardan 749 kishi so'nggi 15 yil ichida hujumga uchragan, 44 nafar jurnalist esa o'ldirilgan (Viloent, 2024). Jurnalistlarning jabrlanishi to'g'risidagi ishlarning deyarli 87% i yuridik ta'qibdan omon chiqadi, ya'ni jinoyatchilar sudlanmaydi (Safety, 2025).

Online va offline tahdidlar, kamsitish, ruhiy zo'ravonlik – jurnalistlarni qattiq ruhiy stressga soladi. Xususan, ayol jurnalistlar orasida bu muammo anchayin jiddiy, 2020-yilda ayol jurnalistlar orasida o'tkazilgan global so'rovnoma 73 foizi ayol jurnalist o'z ishi yuzasidan zo'ravonlikka uchraganini ta'kidlashgan. Respondentlarning 25 foizi jismoniy va 18 foizi jinsiy zo'ravonlikka duch kelgan. 20 foizi esa turli xil online tajovuzlarni boshidan o'tkazgan. Hujumlarning kuchayishi bilan bog'liq holda eng ko'p aniqlangan hikoya mavzusi gender, undan keyin siyosat va saylovlar va inson huquqlari va ijtimoiy siyosat bo'lgani aniqlangan (The Chilling, 2025).

Ushbu xavf turlaridan ko'rinib turibdiki, jurnalistika mashaqqatli yo'l, so'z va adolat uchun kurashishga qat'iyati baland insonlarni bir joyga jamlaydigan maydondir. Himoyasizlik, qonuniy mexanizmlarning zaifligi, ziddiyatlar jurnalistlarning imkoniyatlarini cheklaydi.

4. Xulosa

Jurnalistik surishtiruv – demokratik jamiyat uchun muhim vosita bo'lsa-da, jurnalistlar va axborot manbalari uchun xavfli faoliyat sanaladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ularning xavfsizligini ta'minlashda tizimli va kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Jurnalist va axborot manbasining xavfsizligi xalqaro tajribada integratsiyalashgan yondashuv orqali ta'minlanadi. Bu degani, xavfsizlik choralari: jismoniy, huquqiy, psixologik, raqamli himoya, institutsional qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Milliy qonunchilik jurnalistlar va axborot manbalarining huquqiy himoyasini umumiy shaklda ta'minlasa-da, xalqaro standartlarga mos ravishda ularni maxsus qonun va institutlar orqali kuchaytirish dolzarbdir. Xususan, manba himoyasi bo'yicha xalqaro normalar asosida milliy qonunlarni yangilash va amaliy himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Milliy qonunchilikda jurnalistga axborotni izlash, olish, tarqatish, shuningdek tekshiruv

o'tkazish huquqi berilgan. Ammo jurnalist tergovchi, prokuror yoki sudyadan farqli o'laroq, axborot manbasidan ma'lumotni majburlov choralari yoki protsessual harakatlarni qo'llab olishga haqli emas. Jurnalist tekshiruv muallifni qiziqtirgan fakt yoki hodisani chuqur tahlil va tadqiq qilishni nazarda tutadi. Bu harakatlar qonunda belgilangan huquq va majburiyatlar doirasida, so'z erkinligi mas'uliyatini chuqur his qilgan holda olib borishni talab etadi. Ya'ni aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini muhofazalash, sudyalarning mustaqilligiga daxl etmaslik kabilarga amal qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Adabiy va badiiy asarlar to'g'risidagi Bern konvensiyasi. (1886). Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://lex.uz/docs/1310607>. (Murojat sanasi: 07.09.2022 y)
- Do'stmuhammad, X. va boshq. (2019). Jurnalistika huquqi va etikasi. J.2: OAV qonunchiligi, qonunlarga sharhlar, kasb etikasi. Toshkent. "O'zbekiston". B. 17.
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro (1966). Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://lex.uz/docs/2640479> (Murojaat sanasi: 07.09.2022 y.)
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. (1948). Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> (Murojaat sanasi: 07.09.2022 y.)
- Kusherbaev, R. (2017). "Jurnalistik tekshiruv" mohiyati va mas'uliyati. Uzhurriyat.uz. Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/jurnalistik-tekshiruv-mohiyati-va-mas-uliyati/>
- Mamatova, Y., Sulaymonova, S. (2015). Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Extremum-Press. B. 37.
- Mirsultanova, H. (2023). O'zbekiston OAVda axborot manbalari bilan ishlashning huquqiy mexanizmlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun diss. Toshkent. B. 79.
- Najmiddinov, M. (2023). "Tergov siri". Jurnalistlar tergov ma'lumotlarini kimdan va qanday olishi mumkin? Daryo.uz. Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://daryo.uz/2023/06/06/tergov-siri-jurnalistlar-tergov-malumatlarini-kimdan-va-qanday-olishi-mumkin>
- Toshpo'latova, N. (2018). Jurnalist surishtiruvining shakllanishi va zamonaviy tendensiyalari. M.Obidov. Jurnalist surishtiruv: tajriba va tahlil. Amaliy qo'llanma. Farg'ona. Farg'ona nashriyoti. B. 93.
- Tovoqsoy qamoqxonasida mahkum devor bosib qolishi oqibatida vafot etdi. (2025). Gazeta.uz. Olingan 28 iyul, 2025 dan <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/18/tovoqsoy/>
- Ushlang, prokuraturaga bervoramiz: Zo'ravon «zanhokim»lar poytaxtda ham bor. Olmazor tumanida Kun.uz xodimlari tajovuzga uchradi (2019). Kun.uz. Retrieved July 28, 2025 from <https://kun.uz/news/2019/08/15/ushlang-prokuraturaga-bervoramiz-zoravon->

zamhokimlar-poytaxtda-ham-bor-olmazor-tumanida-kunuz-xodimlari-tajovuzga-uchradi

Grynko, A. (2012). Media transparency through journalists' interpretations: research in Ukraine. Doctoral thesis Barcelona. Retrieved August 18, 2025 from <https://www.tesisenred.net/handle/10803/117311#page=1> P.62.

Posetti, J. (2017). Protecting Journalism Sources in the Digital Age. UNESCO Publishing. P. 35. Retrieved July 28, 2025 from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000248054>

Safety of journalists. (2025). Wikipedia. Retrieved July 28, 2025 from https://en.m.wikipedia.org/wiki/Safety_of_journalists?utm_

The Chilling: A Global Study On Online Violence Against Women Journalists. (2025). ICFJ. Retrieved July 28, 2025 from https://www.icfj.org/our-work/chilling-global-study-online-violence-against-women-journalists?utm_

Violent attacks against environmental journalists on the rise, report finds (2024). Theguardian.com. Retrieved July 28, 2025 from https://www.theguardian.com/environment/article/2024/may/02/violent-attacks-against-environmental-journalists-on-the-rise-report-finds?utm_source

World: abuses in real time. (2025). Rsf.org. Barometer. Retrieved July 28, 2025 from https://rsf.org/en/barometer?annee_start=2020&annee_end=2025&type%5Btue%5D=tue#exaction-victim

Лозовский, Б. Н. (2007). Журналистика : профессиональные стандарты. (2017). Екатеринбург. С. 45-58.

Нукус-Online N1. (2025). Youtube.com. Retrieved July 28, 2025 from <https://www.youtube.com/@ONLINE-us4fg/featured>

Mualliflar haqida:

MIRSULTONOVA Hamida Alisher qizi – PhD, katta o'qituvchi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, hamidau@mail.ru
JAHONOVA Malika Ibodullo qizi – O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti. malikahodiyeva08@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ЖУРНАЛИСТА И ИСТОЧНИКА ИНФОРМАЦИИ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЖУРНАЛИСТСКОГО РАССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье системно проанализированы особенности проведения журналистских исследований и проблемы обеспечения безопасности журналиста и источника информации в процессе сбора данных. Рассмотрены основные типы угроз, с которыми сталкиваются журналисты и их источники: физическая, правовая, психологическая и цифровая безопасность, а также классифицированы глобальные вызовы. Изучены практические рекомендации и механизмы защиты на основе международных стандартов, предложенные такими организациями, как ЮНЕСКО, Комитет по защите журналистов (CPJ), Репортеры без границ (RSF) и ст. 19 Международного пакта о

гражданских и политических правах. Также проанализирована правовая база, обеспечивающая безопасность журналистов и их источников в национальном законодательстве Узбекистана, и ее соответствие международным стандартам на конкретных примерах. В заключении предложены решения по усилению комплексной защиты журналистов и источников информации с учетом международного и национального опыта.

Ключевые слова: источник информации, безопасность журналиста, международные индексы, блогер, угроза.

Об авторах:

МИРСУЛТАНОВА Хамида Алишеровна – PhD, старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, hamidau@mail.ru

ДЖАХОНОВА Малика Ибодулло кизи – магистрант Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана.
malikahodiyeva08@gmail.com

CHALLENGES IN ENSURING THE SAFETY OF JOURNALISTS
AND INFORMATION SOURCES DURING INVESTIGATIVE
JOURNALISM

Abstract: This article provides a systematic analysis of the specific nature of conducting investigative journalism and the challenges of ensuring the safety of journalists and their sources during the information-gathering process. The main types of risks faced by journalists and sources—physical, legal, psychological, and digital security—are explored in relation to real-life practice, and existing global threats are classified. Practical recommendations and protection mechanisms based on international standards from organizations such as UNESCO, the Committee to Protect Journalists (CPJ), Reporters Without Borders (RSF), and Article 19 of the International Covenant on Civil and Political Rights. The article also analyzes the legal framework in Uzbekistan regarding the safety of journalists and information sources and evaluates its compliance with international standards through practical examples. In the conclusion, the authors propose integrated solutions to strengthen the comprehensive protection of journalists and sources, drawing on both international and national best practices.

Keywords: information source, journalist safety, international indexes, blogger, threat.

About the authors:

MIRSULTANOVA Khamida Alisher kizi – PhD, headteacher, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan. hamidau@mail.ru

JAKHONOVA Malika Ibodullo kizi – Master's student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan.
malikahodiyeva08@gmail.com